



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

Xoliqova Yoqutxon Mirzakarim qizi

52- DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilari borliq va unga tutash hodisalar va tabiatni sevishga qaratilgan holatlarni ko'rish mumkin. Bola tarbiyasida tabiatning o'z o'rni borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlarar:** tabiat, inson, rol, , muhofaza, fikr, tarix, tanishtirish, metod, fan, bolalar, qiziqtirish, jonli va jonsiz tabiat.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan' biz tabiatni e`zozlashimiz, unga tog`ri munosabatda bo`lib, tabiatni yana ham ko'rksamligiga, abadiyligiga o`z hissamizni qo'shishimiz zarur. Maktabgacha yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga va tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalar tabiat burchagida, haynovot olami, yer maydonchasida oozlashimiz, unga tog`ri munosabatda bo`lib, ta'lilar hamda ularni parvarish qilishning ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammodir. Shu sababdan ham bolalar bog'chalarida ham ekologik ta'lif-tarbiya berishga alohida e'tibor berilmoqda. Tarbiyach bolalarni tabiat bilan tanishtirishda

bolalarga ekologik ta'lif-tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya berib, ularga ham bolalar bog'chalarida ham ekologik t

Shunindek, tarbiyachilar bolalar bog`chasidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o'rganib olishlari zarur. Bolalarni tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqealarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Bog'cha yoshidagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar, o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Tabiat rang-barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Biz. tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishimiz, ulardan faoliyat jarayonida





oqilona foydalanishimiz kerak. Biz nima uchun bolalarni har tomonlama kamol toptirish kerak deymiz? Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa, maktabgacha yoshdagagi bolalarda ko'proq foizini tashkil etadi. Faqat biz tarbiyachi uni vaqtida parvarish qilsak, uning o'sib voyaga yetishi uchun sharoit yaratsak u albatta, kurtak yozib xosil beradi.


Biz tarbiyachilar avvalo "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi"ni yaxshi bilishimiz lozim.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi bog'cha sharoitida xilma-xil bo'lib, bunda bolalarning xususiyatlari, tabiat haqidagi tushunchasi hisobga olinib, elementar tushunchalardan tortib, bolalarga mos eng murakkab tabiat haqidagi tushunchalarni va tabiatda bo'ladigan voqeа-hodisalarni bilib olishga о'rgatadi. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasining ana shunday o'ziga xos shakllari bilan chegaralanmasdan, mavjud o'zgartirish, yangi ish shakllarini ishlab chiqish, hayot tajribalarini umumlashtirib har bir tarbiyachi o'zining yashaydigan muhiti, sharoitiga mos usullarni topib amalda qo'llashlari kerak. Har bir tarbiyachi ijodiy izlanuvchan, kuzatuvchan, tabiatdan ilhom oladigan, hayotda dadil qadam tashlaydigan, kreativ fikrlaydigan bo'lmosg'i zarur. Chunki hayotimiz doimo rivojlanishda, fan-texnika, ta'lif-tarbiya sohasida yangi-yangi kirralar ochilmoqda.

Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar bog'chasida jonii tabiat burchagiga ega bo'lishdir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va sistemali tarzda tanishtirish ularda jonii tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko'nikmalarini hosil qilish, kuzatuvchanlikni o'stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko'nikmalar asosida tabiatga ehtiyyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi. Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha hayvonlarga, uiarning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan hayvon va o'simliklarning xilmaxilligi ular hayotidagi umumiyligi, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan obyektlar bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Tabiat burchagida yashovchilarning fazoviy yaqinligi ham ahamiyatlidir. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko'rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1991.





2.M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.

3. SH.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva Tabiat bilan tanishtirish metodikasi- T.: 2013 yil "Fan va texnologiya"

